

RAQAMLI IQTISODIYOTNI KORXONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI

HAMDA XORIJY TAJRIBALAR

Abdimo‘minov Ikrom Bozarboyevich

Jizzax politexnika instituti, Iqtisodiyot va menejment kafedrasi assistenti

Khurmatov Behzod

Abu ali Ibn Sino nomidagi Tojikiston Davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada, raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi hamda korxonalar faoliyatiga ta’sir darajasi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalar o‘rnini haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi, yetakchi mamlakatlar, AKT bozori, YaIM.

Annotation: this article provides information on the development of the digital economy and the degree of impact on the activities of enterprises, the role of foreign experiences in the development of the digital economy.

Keywords: Digital Economy, International Telecommunication Union, leading countries, ICT market, GDP.

Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union, ITU)ning 2018-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, AKT sohasida eng rivojlangan davlatlarga Koreya Respublikasi, Yaponiya, Niderlandiya, Shvetsariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Xitoy (Gonkong bilan birgalikda), Norvegiya va Islandiya davlatlari kiradi. AKT rivojlanish indeksiga ko‘ra mamlakatlar reytingida Janubiy Koreya 8-o‘rinni, Germaniya 13-o‘rinni, AQSh 14-o‘rinni, Rossiya esa 44-o‘rinni egallaydi.

Bugungi kunda “raqamli” yetakchi mamlakatlar – Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariyadir. 10 ta yetakchilik guruhi AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkongni o‘z ichiga oladi. Shu

bilan birgalikda, Xitoy, Hindiston, Malayziya va Filippin bilan bir qatorda jahon raqamli iqtisodlar reytingida 39-o‘rinni egalladi.

Raqamli va an’anaviy xizmatlar bozori o‘sib bormoqda va juda tezlikda rivojlanmoqda, ammo ushbu bozor hajmini o‘lchash munozarali muammo bo‘lib qolmoqda. OECD ning 2017-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlar AKT bozorining hajmi YaIMning 3% dan 6% gachani tashkil etadi: Shvetsiyada – 6,8%, Buyuk Britaniyada – 6,5%, Germaniyada – 5,2%. Raqamli sektorning umumiyligi global yalpi ichki mahsulotning 6% ini, ish bilan bandlikning 4% ini tashkil etishi mumkin. Bu taxminlar raqamli kompaniyalar ishchilari soni, tovar aylanmasining ulushi, shuningdek, an’anaviy kompaniyalarning raqamli bo‘limlarida AKT bilan bog‘liq ish o‘rinlari sonining dinamikasiga asoslanadi.

Bugungi kunda dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlari milliy raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirib bormoqdalar: Daniya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Qozog‘iston.

Xitoy, o‘zining “Internet Plus” dasturida raqamli sanoatni an’anaviy tarmoqlar bilan birlashtirishni ko‘zda tutadi. Singapur esa, “Aqli iqtisodiyot” ni shakllantirmoqda, Kanada Torontoda drayveri AKTga asoslangan “AKT markazi”ni yaratmoqda. Janubiy Koreya “Kreativ iqtisodiyot” dasturida inson kapitalini rivojlantirishni, tadbirkorlik va AKT yutuqlarini targ‘ib qilishni, Daniya esa Davlat sektorini raqamlashtirishga asosiy e’tiborini qaratgan.

Tahlillar raqamli tarmoqlar butun dunyo iqtisodiyotiga qaraganda ko‘proq ish o‘rinlarining o‘sishiga xizmat qilayotganligini ko‘rsatmoqda. Masalan, 2013-2018 yillar davomida Kanadada ushbu sohadagi xodimlarning yillik o‘sishi umumiyligi o‘sishga (umumiyligi o‘sish 1,4 foiz) nisbatan juda yuqori bo‘lgan, ya’ni 2,8 foizni tashkil etgan. AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot bo‘yicha hukumatning tashabbuslari va tahlillari ushbu sohada o‘sib borayotgan talabni qondirish uchun yangi iste’dodlar zarurligini ta’kidlashmoqda.

Dunyo va Yevropaning raqamli rivojlangan davlatlaridan biri bu Buyuk Britaniyadir. Buyuk Britaniya hukumati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega deb hisoblagan bir qator eng istiqbolli texnologiyalarni aniqlash va ushbu sohada yetakchi bo‘lish niyatida ekanligini, ayniqsa, 5G kommunikatsiyalari va blokcheynni rivojlantirishni ta’kidlab kelishmoqda.

Bu sohada Yaponiya davlati ham eng ilg‘or davlatlardan biri hisoblanadi, u yerda dunyo bo‘yicha eng katta transport kompaniyasi JR East Group faoliyat ko‘rsatadi. Bu kompaniya kuniga 17 million yo‘lovchini tashiydi va sutkasiga 13 mingta poyezdning harakatini ta’minlab bera oladi. Elektron texnologiyalar ushbu kompaniyaga „temir yo‘l vokzali-shahar“ loyihasini amalga oshirishga imkon berdi. Bunda Tokioning markaziy vokzali mehmonxonalar, biznes-ofislar, tijorat tashkilotlari hamda boshqa obyektlar bilan hamkorlikda ishlashga erishadi. Yo‘lovchi tashishdan tashqari, JR East Group kompaniyasi quyidagi faoliyat turlari bilan ham shug‘ullanadi¹:

- Mehmonxonalar va ofislarning tijoriy ko‘chmas mulkini boshqarish;
- Jamoa ovqatlanishi tarmoqlari va savdo faoliyati;
- Harakatchan sostav ishlab chiqarish;
- Avtobus xizmatlari;
- Monorels transporti;
- Avtomobilarni ijaraga berish;
- Elektron to‘lovlar tizimi IT-Suica;
- Reklama biznesi;
- Fitnes-markazlar xizmati;
- Turistik servis va boshqalar.

IT-Suica deb nomlangan elektron to‘lovlar tizimi JR East Group kompaniyasining eng katta foyda keltiradigan faoliyat turlaridan biri. 2001-yilda

¹ R.H. Ayupov, G.R. Boltaboyeva “Raqamli iqtisodiyot asoslari”. Darslik. T.: Moliya, 2020 y., 437-bet.

bozorga chiqarilgan Suica elektron to‘lov kartalari hozirgi paytdagi soni 75 milliondan ortiqdir. Bu tizim elektron pullardan ham foydalanish imkoniyatini yaratgan.

Raqamlashtirish Internetning tarqalishi hamda mavjudligini rag‘batlantiradi. 1990-yillarda Internet endigina rivojiana boshlagan bo‘lsa, OECD mamlakatlari bugungi kunda aholisining 86 foizdan ko‘prog‘i Internetga ega, 77 foizi esa har kuni Internetdan foydalanishadi. Juhon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi vaqtida Internet tarmog‘idan dunyo aholisining yarmidan ko‘pi foydalanadi, ammo rivojlanishi past bo‘lgan mamlakatlarda Internetdan foydalanish hali ham past darajada qolmoqda va aholining atigi 15 foizini tashkil qiladi. Internetning keng tarqalishiga eng katta to‘siq bu obuna to‘lovlaringin yuqoriligidir.

Bundan keyin global jarayonlar va davlatlarning raqobatbardoshlik darajasi yangi zamonaviy raqamli texnologiyalar paydo bo‘lishiga moslashuvchanligi va tezkorligi bilan ham belgilanadi. Yangi texnologiyalar bozor ishtirokchilari uchun imkoniyatlarni kengaytiradi, shuningdek, bir qator to‘siqlarni ham keltirib chiqaradi. Raqamli iqtisodiyotning raqobat muhitiga va mehnat bozoriga ta’siri eng katta e’tiborni talab qiladi, chunki raqamli iqtisodiyot ish jarayonlarini avtomatlashtirishga olib keladi, bu esa yuqori va past malakali ish joylariga talabning oshishiga, o‘rtacha malakaga ega bo‘lgan ishchilar sonining esa aksincha kamayishiga olib keladi.

Firmalar xarajatlarni minimallashtirish va innovatsion mahsulotlarni yetkazib berish uchun autsorsingga suyanar ekan, kiber chidamlilik va uchinchi tomon autsorsingi bo‘yicha tekshiruv kuchaymoqda, tartibga soluvchilar hamda innovatorlarni umumiyligi e’tibor bilan bir oqimga birlashtirish uchun turli konferensiyalar o‘tkazilmoqda. Hozirgi vaqtida innovatsion startaplarni mahsulotlarni taklif qilish va tartibga solish o‘rtasida shaffoflikni yaratishda ishtirok etishga undaydigan bir qator sandbox loyihalari mavjuddir.

Barcha rivojlanayotgan texnologiyalar hamda raqamlashtirishning asosini tashkil etuvchi asosiy qurilish bloklari infratuzilma va ma’lumotlardir. Firmalar

o‘zlarining ma’lumotlar bazalarini saqlash va tahlil qilish bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishlarini hamda tegishli boshqaruv hamda nazoratni o‘rnatishlarini ta’minlashlari kerakdir. Ular xizmatlarni chegaralar orqali yanada samaraliroq yetkazib berish bilan birgalikda, maxfiy mijozlar va bozor ma’lumotlarini himoya qilishlari kerak. Bu tartibga soluvchilar tomonidan munozarada davom etayotgan huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birgalikda, boshqaruvni raqamlashtirishning ta’siri quyidagi jihatlarda eng ko‘p namoyon bo‘ladi:

- o‘zaro funksional ta’sirning kuchayishi;
- operatsiyalarning bajarish tezligi;
- operativ qarorlarning sifati;
- xarajatlarni kamaytirish;
- operatsion faoliyatning monitoringini real vaqtda olib borish imkoniyati;
- ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish.

Rivojlangan davlatlarda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda onlayn platformalarda savdo maydonchalari tashkil qilingan. Ushbu savdo maydonchalari orqali bugungi kunda turli savdo operatsiyalari, kontragent shartnomalari blokcheyn modeli asosida amalga oshirilib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.R. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. Samarqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020 yil – 126 bet
2. Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro‘li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – C. 64-66.
3. Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(1), 288-290.

4. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(05), 126-130.
5. Umirova, G. (2023). Tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya omillaridan foydalanishning zaruriyati. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*, 8, 74-77.